

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNI QO'LLAB- QUVVATLASHNING TASHKILY VA ME'YORIY ASOSLARI

Nizomiy nomidagi UZMPU Maxsus psixologiya va inklyuziv fakulteti

Logopediya yo'nalishi talabasi

SH.B.Bektemirova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, inklyuziv ta'limning yurtimizga kirib kelishi va tadbqiq etilishi to'g'risida va inklyuziv ta'lim to'g'risida qabul qilingan qaror va prezident farmonlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, alohida yordamga muhtoj bolalar, alohida yordamga muhtoj bolalarni o'qitish, ijtimoiylashtirish, inklyuziy ta'limning yurtimizda tadbqiq etilishi.*

Аннотация: *В статье представлена информация о концепции инклюзивного образования, внедрении и реализации инклюзивного образования в нашей стране, а также принятых постановлениях и указах Президента по вопросам инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, образование детей с особыми потребностями, социализация, реализация инклюзивного образования в нашей стране.*

Inklyuziv ta'lim- bu rivojlanishda va ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning umumta'lim maktabida alohida emas , balki sog'lom tengqurlari bilan bir sinfda ta'lim olishidir.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.¹³ Turli kitoblarda inklyuziv ta'lim tushunchasi turli xil tasnif etilgan. 2008-yilda nashr etilgan "Pedagogik atamalar lug'ati" da inklyuziv ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan: "Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir".

Inklyuziv ta'lim faoliyati dasturi maxsus ehtiyojlar ta'limi butun jahon konferensiyasida qabul qilindi. Konferensiya UNESCO hamkorligida Ispaniyada 1994 yil 7-10 iyunda o'tkazildi. Uning maqsadi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, milliy yordam uyushmalari, nodavlat tashkilotlar va boshqa bo'limlarni maxsus ehtiyojlar ta'limi amaliyoti, islohoti va tamoyillari bo'yicha Salamanka bayonotini hayotga tatbiq etishning islohotlari va faoliyatlari bilan tanishtirishdir.¹⁴

¹³ F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" Chirchiq 2022 9-bet

¹⁴ "INKLYUZIV TA'LIM" MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024 9-bet

Inklyuziya 200 yillik tarixga ega. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. AQSH da 1875 yildan 1914 yilgacha majburiy maktab ta'limi joriy qilingan edi. Shunga muvofiq ravishda aqli zaif hisoblangan va tarbiyasi og'ir, kar, jismoniy maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun maxsus sinflar tashkil qilingan edi¹⁵.

JEYN MERSEY 1971 yil tadqiqotlarida ta'kidlashicha, har bir ijtimoiy tizim insonga yangi tushunchalarni beradi, shuning uchun maxsus tarbiyaga muhtojlik ijtimoiy kelishuvlarning mahsuli hisoblanadi. 1962 yilda Reyxolds va I. Denoning takliflari asosida "servislar kaskadi" degan tushuncha joriy qilindi.¹⁶ Ushbu modelning mohiyati shundaki nafaqat kasalxonada yoki yoki uyda ta'lim oluvchi bolalarning balki umumta'lim maktablari taxsil oluvchi o'quvchilarning xohish istaklaridan kelib chiqqan holda ta'limga yangilik va o'zgartirishlar kiritishdan iborat.

O'zbekistonga inklyuziv ta'lim 19960-yilda kirib kelgan. Bolalar ijtimoiy moslashuv markazi va Amerikalik "Meraysi", YUNESKO hamkorlikda inklyuziv ta'lim proyeksi o'rganilib, O'zbekistonning 5 ta hududida: Andijon, Samarqand, Xorazm, Jizzax viloyatlari va Toshkent shahrining Shayxontohur tumanining 324-maktabida va boshqa 300ta maktab tashkilotlarida tajriba sinov tadqiqotlari olib borilgan.

Olib borilgan bir necha yillik tadqiqotlardan va tajribalardan so'ng inklyuziv ta'limni barcha viloyat va shaharlardagi maktablarda tashkil etishga kirishildi. Hozirgi kunga qadar har bir viloyatning har bir tumanida kamida bittadan maktablarda inklyuziv sinflar tashkil etilgan. 2030-yilga qadar yurtimizdagi har bir maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tibbiyijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda.¹⁷

2020-yil 24-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi prezident farmonining 20-moddasida ham inklyuziv ta'limga alohida ta'rif berib o'tilgan.

"Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan."¹⁸

¹⁵ "INKLYUZIV TA'LIM" MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024 46-bet

¹⁶ "INKLYUZIV TA'LIM" MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024 47-bet

¹⁷ F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" Chirchiq 2022 15-bet

¹⁸ <https://lex.uz/uz/>

Inklyuziv ta'lim zamirida mamlakatimizda mahsus ehtiyojga muhtoj bolalarni jamiyatga qo'shish, ularni sog'lom bolalardan ajratmagan holda ta'lim- tarbiya berish yotadi. Jamiyatimizda inklyuziv ta'limni tadbiq qilish muhim va shu bilan birga murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bu ta'lim turini butun mamlakat maktablari bo'ylab yo'lga qo'yish ishlariga kuchli e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" Chirchiq 2022 9-bet
2. "INKLYUZIV TA'LIM" MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024 9-bet
3. "INKLYUZIV TA'LIM" MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024 46-bet
4. "INKLYUZIV TA'LIM" MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024 47-bet
5. F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" Chirchiq 2022 15-bet
6. <https://lex.uz/uz/>